

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI QOSHIDAGI  
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI HUZURIDAGI  
DSc.07/27.02.2020.Yu.108.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI QOSHIDAGI  
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**NABIYEV FIRUZJON XAMIDOVICH**

**INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQ  
NORMALARINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYASI**

**12.00.10 – Xalqaro huquq**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Nabiyev Firuzjon Xamidovich**

Intellectual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya ..... 2

**Набиев Фирузжон Хамидович**

Имплементация норм международного права в области интеллектуальной собственности в законодательство Республики Узбекистан ..... 30

**Nabiyev Firuzjon Khamidovic**

Implementation of international law in the field of intellectual property into the legislation of the Republic of Uzbekistan ..... 49

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 51

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI QOSHIDAGI  
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI HUZURIDAGI  
DSc.07/27.02.2020.Yu.108.01 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI QOSHIDAGI  
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**NABIYEV FIRUZJON XAMIDOVICH**

**INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQ  
NORMALARINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYASI**

**12.00.10 – Xalqaro huquq**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.4.PhD/Yu223-raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://uzmarkaz.uz/uz/>) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Umarxanova Dildora Sharipxanovna**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor  
**Yunusov Haydarali Muratovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat yuridik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi huzuridagi DSc.07/27.02.2020.Yu.108.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024- yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisda bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100052, Toshkent sh., Katta Darxon ko‘chasi, 6-uy. Tel.: +99871 234-56-02; e-mail: yurmarkaz@adliya.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100052, Toshkent sh., Katta Darxon ko‘chasi, 6-uy. Tel.: +99871 234-56-02; e-mail: yurmarkaz@adliya.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**L.A. Saidova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi  
o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori,  
professor

**Sh.N. Rahmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

**A.B. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,  
yuridik fanlar doktori, dotsent

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida kontrafakt mahsulotlar savdosi o‘shirda davom etmoqda, xusan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 2019-yilda o‘tkazilgan tadqiq ma’lumotlariga ko‘ra, kontrafakt mahsulotlarning global savdosi 509 milliard dollargacha o‘sdi, bu esa jami jahon savdosining 4,1 foizini tashkil etdi<sup>1</sup>. Brend va tovar belgilarini himoya qilish bo‘yicha yetakchi kompaniya hisoblangan “Corsearch”ning tadqiqotiga ko‘ra kontrafakt mahsulotlarning global savdosi 2030-yilga borib 1,79 trillion dollarga yetishi mumkin, bu esa 2023-yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 75 foiz ko‘proqni tashkil etadi<sup>2</sup>. Natijada intellektual mulk huquqi egalarining huquq va qonuniy manfaatlariga hamda mamlakatlar iqtisodiyotiga zarar yetkazilmoqda. Bunga intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalari jahon bozori va raqamli iqtisodiyotning tez o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashmaganligi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi (3D texnologiyalari, biotexnologiyalar va boshqalar) bilan mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning to‘laqonli ishlab chiqilmaganligi asosiy sabablardan hisoblanadi. O‘z navbatida mavjud kamchilik va nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun milliy huquq tizimlarini xalqaro standartlariga ko‘proq muvofiqlashtirish, tegishli huquqiy normalarni ishlab chiqish (uyg‘unlashtirish, implementatsiya qilish) orqali ushbu munosabatlarning tashkiliy va huquqiy jihatlarini tartibga solish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugun jahonda patentlar, tovar belgilari, mualliflik huquqini himoya qilish va kontrafaktga qarshi kurash kabi mavzular keng miqyosda ilmiy jihatdan tadqiq etilgan bo‘lib, mazkur ilmiy izlanishlar asosida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan butun dunyo bo‘ylab intellektual mulkni himoya qilishni yanada takomillashtirish (jumladan, WIPOnet – Global intellektual mulk tarmog‘i) va ushbu sohadagi milliy qonunchilikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish kabi amaliy natijalarga erishilgan. Lekin shunga qaramasdan hozirgi kunda biotexnologiya, farmatsevtika va sun‘iy intellekt sohasidagi innovatsiyalar singari ko‘plab mavzular qo‘shimcha o‘rganishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa raqamli transformatsiya sharoitida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlarini ishlab chiqish, transchegaraviy himoya kontekstida intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal qilish hamda tashkiliy-huquqiy masalalar majmui bo‘lgan intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha huquqiy tizim yaratilgan bo‘lib, Fuqarolik kodeksining IV bo‘limi intellektual mulk bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarga bag‘ishlangan. Shuningdek, sakkizta maxsus qonunlar va o‘n beshdan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Bundan tashqari, intellektual mulk sohasida institutsional tizim yaratilgan bo‘lib, intellektual mulk obektlariga bo‘lgan huquqlarni muhofaza qiluvchi va ushbu

---

<sup>1</sup> [https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2021/12/e-commerce-challenges-in-illicit-trade-in-fakes\\_776a8c58/40522de9-en.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2021/12/e-commerce-challenges-in-illicit-trade-in-fakes_776a8c58/40522de9-en.pdf)

<sup>2</sup> <https://corsearch.com/about/press-releases/trade-in-counterfeit-goods-market-set-to-reach-1-79-trillion-in-2030>

sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hisoblanadi. Intellektual mulk huquqlarini yanada samarali himoya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti (JST)ning fundamental hujjatlari bilan uyg‘unlashtirish, xususan, mamlakat milliy huquq tizimini JSTning Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo‘yicha bitimi (TRIPS) talablariga muvofiqlashtirish muhimdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida milliy qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini JSTning qoida, me‘yor va bitimlariga moslashtirish zarurligi ko‘rsatilgan. Bu esa intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish asoslarini yanada chuqurroq o‘rganish dolzarbligini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi 267-II-son “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi 397-II-son “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi O‘RQ-42-son “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PQ-4756-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan va xalqaro tashkilotlarga a‘zolikdan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PQ-4965-son “Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalari mamlakatimiz mualliflari orasida keng o‘rganilmagan. Masalan, xalqaro huquqning milliy huquq tizimiga implementatsiya qilishning umumiy nazariy masalalari A.Saidov, L.A.Saidova, A.S.Ismoilov, X.T. Odilqoriyev, B.N. Toshev A.B. Gafurov, G.Yu. Yuldasheva, G.A. Matkarimova, I.I. Boboqulov va Z.S. Ubaydullayevlar o‘zlarining ilmiy ishlarida xalqaro huquq va milliy huquq normalarining o‘ziga xos xususiyatlari, xalqaro va milliy huquqning o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratdilar.

Shu bilan birga, B.N. Toshev tomonidan mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni tartibga solish sohasidagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka tatbiq etish masalalarini o'rganilgan<sup>3</sup>.

Z.S. Ubaydullayev tomonidan intellektual mulk sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarni tahlil qilib, texnologiyalar transferi orqali intellektual mulkni tijoratlashtirish masalalarini o'rganilgan<sup>4</sup>.

Horijiy olimlardan V.V. Belov, J.H. Boroxovich, G.V. Bromberg, V.I. Gladkix, V.N. Dementeva, R.P. Dyuma, S.I. Karpuxina, V.D. Larichev, R.I. Mitrofanovoy, A.V. Naumova, A.A. Pilenko, V.I. Potapova, A.P. Sergeyeva, Yu.V. Trunsevskiy, D.Yu. Shestakov, A.A. Kovalenkov, V.A. Komanchi, K.V. Kuznetsov, I.V. Svetkov, D.Yu. Shestakov, M. Blakeney, K. Boele-Woelki, C. Colston, J. Galloway, P. Menell, S. Scotchmer, S. R. Munzer va W. J. Gordon N.V. Buzova, E.L. Gavrilov, S.L. Grishayev, X.Dj. Koxen<sup>5</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlari intellektual mulkni himoya qilishning xalqaro jihatiga, jumladan, implementatsiya, uyg'unlashtirish va unifikatsiya masalalariga bag'ishlangan.

Shu bilan birga intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalari kompleks o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqot ishi mavzusi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi, ratifikatsiya qilingan konvensiyalar normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, xalqaro shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari (2020–2023 y.y.) doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** ushbu sohadagi dolzarb muammolarni o'rganish orqali (tadqiqot predmetini tashkil etuvchi masalalar doirasida) intellektual mulk sohasida xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilishning milliy huquqiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarining tushunchasi va mohiyatini tahlil qilish;

intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka ta'sirini o'rganish;

intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilishning shakl va usullarini tadqiq etish;

intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilishda O'zbekiston Respublikasining faoliyatini yoritib berish;

---

<sup>3</sup> Toshev B.N. Xalkaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi.-T., 2007 y.

<sup>4</sup> Ubaydullayev Z. S. Intellektual mulk huquqiga doir normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro shartnomalar to'plami. – T.: JIDU, 2015.; Ubaydullayev Z. S. Intellektual mulk obyektlarining tijoratlashuvi va texnologiyalar transferining huquqiy asoslari. Monografiya. – T.: JIDU, 2015.

<sup>5</sup> Bu va boshqa mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

xalqaro huquq normalari va O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlari o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha sud amaliyotini tahlil qilish;

intellektual mulk sohasida xalqaro huquqiy normalarni implementatsiya qilish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish;

intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquqiy normalarni O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga tatbiq etishda “moslashuvchanlik” konsepsiyasining rolini ko‘rib chiqish;

intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarni himoya qilishni kuchaytirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga “ex officio” tartibini kiritish masalasini o‘rganib chiqish;

intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquqiy normalarni implementatsiya qilish orqali O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini xususiyati hamda ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** intellektual mulk sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda xalqaro ommaviy huquq fanida mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy bilishning mantiqiy, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, tahliliy, statistik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, umumlashtirish, tizimli, formal-yuridik o‘rganish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yuridik adabiyotlarda “intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalari”, “intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish”, “intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish mexanizmi”, “intellektual mulk sohasidagi xalqaro standartlar” kabi tushunchalarning yagona ta’rifi mavjud emasligi asoslantirilgan;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga tergovga qadar tekshirish instituti joriy etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi amaldagi qonunchiligida mazkur institutga oid normalar mavjud emasligi asoslantirilgan;

TRIPS kelishuvining 41-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda amaldagi qonunchilikda guvohlarning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqqan holda intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mutlaq huquqlarning buzilishi faktini rasmiylashtirish tartibida takrorlanuvchi qoidalar mavjudligi asoslantirilgan;

intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalari asosida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ajratilgan arizalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda huquqiy bo‘shliq mavjudligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini amalga oshirish implementatsiya qilish bilan bog‘liq ko‘rib chiqilgan dolzarb nazariy va amaliy masalalardan kelib chiqib, intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi yanada samaraliroq va o‘z vaqtida amalga oshirilishi uchun BIMT universal konvensiyalarida intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish mexanizmiga oid qoidalar bilan to‘ldirish zarurligi asoslab berilgan;

“Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalari”, “Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish”, “Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish mexanizmi”, “Intellektual mulk sohasidagi xalqaro standartlar” tushunchalariga mualliflik ta’rifi berish asoslangan;

xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, intellektual faoliyat natijalarini huquqiy himoya qilishni ta’minlash hamda intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarning buzilishi bilan bog‘liq sud ishlarini samarali ko‘rib chiqish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida intellektual huquqlar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sudni tashkil etish asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasining bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga “ex officio” tartibining kiritilishi parallel import qilinadigan obyektlar va intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishni yanada kuchaytirishi asoslantirildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** uning maqsad va vazifalari aniq belgilab olinganligi, tadqiqot natijalarida xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ilg‘or xorijiy tajribalar, huquqni qo‘llash amaliyoti, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilgan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilganligi, xulosa, taklif, tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilinganligi, olingan natijalar amaliyotga joriy qilingan vakolatli davlat organlari tomonidan tegishli dalolatnomalar bilan tasdiqlanganligi hamda hamda nazariy-ilmiy xulosalar xalqaro ilmiy bazalar (<https://www.scholar.google.com>, <https://www.jstor.org>, <https://www.sciencedirect.com>, <https://www.proquest.com>, <https://heinonline.org>) va boshqa rasmiy manbalardan olingan ishonchli ma’lumotlar asosida shakllantirilganligi bilan izohlanadi..

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqotda intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini amalga oshirishning xalqaro va milliy manbalari, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Bu natijalar “Xalqaro ommaviy huquq”, “Xalqaro shartnomalar huquqi”, “Xalqaro iqtisodiy huquq” va “Xalqaro tashkilotlar huquqi” kabi qator fanlar bo‘yicha o‘quv jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati intellektual mulk sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish jarayonida, intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarlikka qarshi kurash bo‘yicha qonun normalarini qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda xizmat qiladi

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Dissertatsiya ishida ko'rsatilgan taklif va tavsiyalardan quyidagilarda foydalanildi:

“surishtiruv” degan so‘zni “tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv” degan so‘zlar bilan almashtirish haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta‘minlash bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonunining 22-moddasi 1-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlar aloqalar Qo‘mitasining 2021-yil 13-yanvar kungi 10/1-46-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi isbotlash maqsadida jinoyat-protsessual harakatlarini olib borilishini xalqaro huquq standartlarga mos ravishda tashkil etilishi bilan nafaqat surishtiruv, balki tergovga qadar tekshiruv bosqichida ham dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdan iborat amaliyotni qo‘llanilishiga imkon yaratdi;

xolislar o‘zining hozirligida amalga oshirilgan harakatlar fakti, mazmuni, va natijalarini dalolatnomada tasdiqlashi shartligi, ular amalga oshirilgan harakatlar yuzasidan dalolatnomaga kiritilishi lozim bo‘lgan fikr-mulohazalar bildirishga haqli degan so‘zlarni chiqarib tashlash haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-fevraldagi O‘RQ-749-son “Intellectual mulk to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunining 2-moddasi 1-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasining 2022-yil 20-apreldagi 04/7-10-son dalolatnomasi). Ushbu taklif intellektual mulk obyektlariga mutlaq huquqlar buzilgan taqdirda protsessual rasmiyalashtirish tartibini aniqlashtirish imkonini berdi;

ajratilgan talabnoma talabnoma beruvchi tomonidan dastlabki talabnoma bo‘yicha qaror qabul qilingunga qadar topshiriladi, ajratilgan talabnomada ko‘rsatilgan tovarlar dastlabki talabnomada qoldirilgan tovarlar bilan bir xil bo‘lmasligi lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-sentyabrdagi 480-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentining 48-bandi 2-kichik bandini, ajratilgan talabnomada ko‘rsatilgan tovarlarning tovar belgisiga topshirilgan dastlabki talabnomada mavjudligi haqidagi taklifidan mazkur Ma‘muriy reglamentning 78-bandi 2-kichik bandini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 2-fevraldagi 12-15-13-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin bo‘lgan tovar va/yoki xizmatlarning bir qismiga nisbatan tovar belgisini o‘tkazish uchun ajratilgan talabnomaga nisbatan iltimosnoma berish, ajratilgan talabnomani ro‘yxatga olish, mazkur talabnomani ko‘rib chiqish (davlat ekspertizasidan o‘tkazish) va yakuniy qaror qabul qilish tartibini belgilashda xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola (5 ta xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** (doktorlik dissertatsiyasining annotatsiyasi) tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchlilik, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinishi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Birinchi bob **“Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalari va ularni implementatsiya qilish mexanizmi”** deb nomlanib, unda intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarining mohiyati, manbalari va tasnifi, intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka ta’siri, shuningdek, intellektual mulk sohasida xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish shakl va usullari tahlil qilindi.

Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish – bu davlat tomonidan intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini xalqaro huquq manbalarida ko‘rsatilgan majburiyatlari asosida amaliy qo‘llash jarayoni hisoblanadi. Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalari xalqaro ommaviy huquqning asosiy tamoyillariga asoslanganligi sababli ushbu normalar “qattiq”, “yumshoq” va ijtimoiy normalar sifatida tasniflanadi.

Tadqiqot ishiga muvofiq xalqaro shartnomalarning qiyosiy huquqiy tahliliga ko‘ra, shuningdek, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish rejimiga asoslanib, intellektual mulk sohasidagi xalqaro normalar uch guruhga bo‘linadi: intellektual mulkni huquqiy himoya qilish shartlarini qat’iy belgilaydigan moddiy-huquq normalar, ruxsat beruvchi moddiy-huquq normalar va taqiqlovchi moddiy-huquq normalar.

Dissertant U.M.Mamadamonov, A.S.Smbatyan va boshqa mualliflarning fikr-mulohazalariga asoslangan holda TRIPS bitimini o‘z ishtirokchilariga intellektual mulkni yanada kengroq himoya qilish imkonini beruvchi minimal standartlar bo‘yicha kelishuv sifatida tavsiflaydi. Chunki TRIPS bitim o‘z ishtirokchilariga

o‘zlarining huquqiy tizimi va huquqni qo‘llash amaliyoti doirasida bitim qoidalarini amalga oshirishning tegishli usulini tanlash erkinligini beradi.

Shu munosabat bilan ta’kidlash kerakki, me’yoriy hujjatlar va ilmiy nashrlarda “intellektual mulk sohasidagi xalqaro standartlar” atamasi juda tez-tez qo‘llanilishiga qaramay, ushbu tushunchaning aniq ta’rifi hanuz mavjud emas.

Muallif E.Xamfreyz, D.Archibugi va A.Filippeti kabi nazariyotchi olimlarning ilmiy ishlariga asoslanib, intellektual mulk sohasidagi xalqaro standartlarning mohiyatini aniqlashda ularni quyidagicha ta’riflash mumkinligini ta’kidlaydi: “Intellektual mulk sohasidagi xalqaro standartlar – intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalarda mustahkamlangan xalqaro intellektual mulk tizimining asoslarni yaratish uchun zarur bo‘lgan minimal qonuniy talablardir”.

Muallifning fikriga ko‘ra, intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish mexanizmining o‘ziga xos xususiyati shundaki, implementatsiya qilishdagi davlatlar faoliyatini xalqaro miqyosda nazorat qilish uchun yagona markazlashtirilgan apparatning mavjud emas.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi bevosita intellektual mulk masalalariga bag‘ishlangan 19 ta ko‘p tomonlama va 40 ga yaqin ikki tomonlama xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi hisoblanadi.

Dissertant intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalar va bitimlar oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun ishtirokchi-davlatlar ular uchun belgilangan barcha shartlarni bajarishlari kerak, deb hisoblaydi. Bunday shartlar qatorida xorijiy subyektlarga milliy rejim va (yoki) eng qulay shartlar rejimini taqdim etish, intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilishning minimal darajasini (minimal standartlar) belgilash va ularni ro‘yxatga olishning xalqaro tizimlarini yaratish kiradi. Masalan, TRIPS Bitimining 3 va 4 moddalarida ushbu Bitimga a‘zo mamlakatlarning milliy rejim va eng qulay shartlar rejimini ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlarini belgilaydi.

Muallif V.G.Butkevich, S.V.Chernichenko, P.M.Xizriyev kabi tadqiqotchilarning ishlarini tahlil qilib, intellektual mulk sohasidagi xalqaro va milliy huquq garchi tuzilmaviy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi huquq tizimlari bo‘lsa-da, har ikkisi ham yaqqol ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, jamiyatning hozirgi ehtiyojlarini ifodalaydi, degan xulosaga keldi.

Muallifning fikriga ko‘ra Urugvay raundidan keyin joriy etilgan yangi tizim intellektual mulk huquqlarini taqdim etish jamiyat va novator o‘rtasida imtiyozlar almashinuvi ijtimoiy normalarga asoslanishi kerakligini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi ishtirok etayotgan intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, shartnomalarning aksariyat qismi huquqiy himoya berish tartibini soddalashtirishga yoki tasniflash tizimini yaratishga qaratilgan. Biroq bunday bitimlar o‘z-o‘zidan amalga oshiriladi, bu esa milliy qonunchilikka o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish va shunga mos ravishda mazkur sohada namunaviy hujjatlar ishlab chiqish zaruratini istisno etadi.

Intellektual mulk sohasida xalqaro norma va standartlarni implementatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi davlat siyosatining kun tartibidan o‘rin olgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi PQ-4168-son “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan intellektual mulk obyektlarini samarali himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan bo'lib, unga asosan milliy qonunchilikka intellektual mulk sohasida umume'tirof etilgan xalqaro standartlarni, shu jumladan JSTning TRIPS bitimi talablarini inobatga olgan holda implementatsiya qilish belgilangan.

Dissertatsiya ishida agar davlatlar xalqaro majburiyatlarini bajarmasa, intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquqni implementatsiya qilish jarayoni o'z samarasini yo'qotadi, bu esa darhol xalqaro huquqiy tartibga solish tizimiga ta'sir qiladi, degan fikr ilgari suriladi. Shu sababli, keyinchalik intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini mustaqil davlatning ichki huquqiy tizimiga tatbiq etishning o'ziga xos mexanizmini shakllantiradigan turli huquqiy vositalardan foydalanish uchun shart-sharoitlarni o'z vaqtida yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, dissertant intellektual mulkni ruxsatsiz nusxalash va tarqatishni osonlashtirgan internet va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda intellektual mulk huquqlariga rioya etilishini ta'minlash jiddiy muammo ekanligi hamda intellektual mulk huquqlarini internet foydalanuvchilarining shaxsiy hayoti va erkinligiga tajovuz qilmasdan turib ta'minlash murakkaligi uchun ushbu masalani sinchkovlik bilan ko'rib chiqilishi lozimligiga e'tibor qaratdi.

Muallifning fikricha, hozirda milliy qonunchilik doirasida intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquqning salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti, bu esa milliy qonunchilikni uyg'unlashtirishning keyingi jarayoniga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Buning qiyidagi sabablari mavjud:

birinchidan, BIMIT huquqiy majmuasi keng doiradagi kelishuvlar va normalarni o'z ichiga oladi, bu esa mazkur normalarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilish jarayonini murakkablashtiradi;

ikkinchidan, intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquqni milliy qonunchilikka to'g'ridan to'g'ri ta'sir etish va implementatsiya qilish mexanizmi masalasi BIMITga a'zo davlatlar tomonidan yetarlicha ko'rib chiqilmagan, chunki xalqaro huquqni implementatsiya qilishda ahar bir a'zo davlatning milliy qonunchiligi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, muallif intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka yanada samaraliroq implementatsiya qilish uchun BIMIT universal konvensiyalarini intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish mexanizmi bo'yicha muayyan qoida bilan to'ldirish zarur deb hisoblaydi.

**"Intellektual mulk sohasida xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish amaliyoti"** deb nomlangan ikkinchi bobda intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilishning xalqaro ommaviy-huquqiy masalalari, xalqaro huquq normalarini milliy huquqiy implementatsiya qilish asoslari ko'rib chiqiladi, shuningdek, intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganiladi.

Muallifning fikricha, ichki davlat hujjatini qabul qilish yo'li – intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha respublika qonun chiqaruvchi hokimiyati tomonidan tanlab olingan intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini O'zbekiston

Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilishning eng keng tarqalgan usulidir. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishi transformatsiya instituti orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik amaliyotini organish asosida unda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar qoidalarini amalga oshirishni majburlovchi qoidalar mavjud emasligi to'g'risida xulosa qilish mumkin, xalqaro shartnomalarning ustuvorligini tan oladigan qoidalar bundan mustasno.

Intellektual mulkka nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish usullari orasida sud himoyasi muhim o'rin tutadi va qonun bilan kafolatlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, intellektual mulk bilan bog'liq sud ishlarining soni yil sayin ortib bormoqda. Xususan, intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha iqtisodiy nizolar statistik ma'lumotlariga ko'ra, bunday nizolarning o'sish dinamikasini qayd etish mumkin.

Dissertant sud amaliyotini tahlil qilib, ayrim fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy, ma'muriy ishlarni, shuningdek ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni hal qilishda intellektual mulk to'g'risidagi xalqaro shartnomalarning normalari sudlar tomonidan faqatgina O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan hollardagina qo'llaniladi, degan xulosaga keldi.

Shu bilan birga, sud qarorlarida intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini to'g'ridan to'g'ri qo'llash juda kam uchraydi. Intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalar normalariga havolalar asosan intellektual mulk masalalarini tartibga solishning umumiy tamoyillariga murojaat qilganda amalga oshiriladi. Xususan, intellektual mulk bilan bog'liq iqtisodiy ishlar bo'yicha sud hujjatlarida sudlar tomonidan ko'pincha 1957-yil 15-iyundagi Nitssa bitimiga (O'zbekiston Respublikasi mazkur Bitimga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 30-avgustdagi 275-II-sonli "Belgilar ro'yxatga olinadigan Xalqaro tovarlar va xizmatlar tasnifi to'g'risidagi Nitssa shartnomasiga qo'shilish haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan) muvofiq qabul qilingan Tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifiga (ICGS) murojaat qilingan.

Bundan tashqari, ushbu bandda Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, intellektual faoliyat natijalarini huquqiy himoya qilishni ta'minlash hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarning buzilishi bilan bog'liq sud ishlarini samarali ko'rib chiqish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida intellektual mulk bo'yicha ixtisoslashtirilgan sudni tashkil etish taklif etildi.

Tadqiqot ishida xalqaro shartnomaning milliy qonunchilikning bir qismiga aylanishi to'g'ridan to'g'ri konstitutsiyaning o'zida aks ettirilgan bo'lishi yoki bunday qoidalar konstitutsiyalarda aks ettirilmagan bo'lsada, ammo sud tomonidan o'z tashabbusi bilan mustaqil qo'llanilishi to'g'risida xulosa qilingan.

Muallif ma'lum bir xalqaro shartnomaning xususiyatlari bo'yicha ba'zi rasmiy ichki o'zgarishlar zarurligiga asoslanib, intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquqiy normalarni implementatsiya qilish ikki omilga bog'liq: muayyan davlatning konstitutsiyaviy, ma'muriy va huquqiy amaliyotiga (masalan Fransiya, Germaniya, Ispaniya kabi) va "o'zini o'zi bajarish" yoki "o'zini o'zi bajarmaslik" tamoyiliga (masalan, AQSH) asoslangan, degan xulosaga keldi.

Bundan kelib chiqqan holda, dissertatsiya muallifi intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquqni implementatsiya qilish muammosini hal qilish uchun barcha davlatlar uchun har qanday holatda foydalanish mumkin bo'lgan ichki darajadagi yagona shartli chora-tadbirlar ro'yxatini ishlab chiqish maqsadga muvofiq degan xulosaga keldi. Shu bilan birga dissertantning fikriga ko'ra, tahlil qilinishi lozim bo'lgan masala shundaki, xalqaro huquqning ayrim qoidalarini intellektual mulk sohasidagi o'zini o'zi amalga oshiradigan normalar sifatida tasniflash masalasi har bir davlatda turlicha hal qilinganligi uchun ushbu chora-tadbirlar ro'yxatini hamma davlatga bir xil ravishda qo'llab bo'lmaydi.

**“Intellektual mulk sohasida xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobda intellektual mulk sohasida xalqaro huquq normalarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilishda “moslashuvchanlik” konsepsiyasining o‘rni, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga “ex officio” tartibini kiritish masalalarini hamda TRIPS bitimi normalarini implementatsiya qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

“Moslashuvchanlik” konsepsiyasi atamasi TRIPS bitimi bo‘yicha majburiyatlarni milliy manfaatlarni ta‘minlash uchun ushbu bitim qoidalari va tamoyillarini buzmasdan, milliy qonunchilikka tadbiq etish mumkin bo‘lgan turli xil variantlar mavjudligini anglatadi. Ushbu ta‘rif quyidagi elementlar orqali konsepsiya doirasini aniq belgilaydi:

- 1) u bir nechta variantlar mavjudligini aks ettiradi;
- 2) intellektual mulk sohasida xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish jarayoniga muayyan “moslashuvchanlik” konsepsiyasi mexanizmidan foydalanishning birinchi bosqichi uni milliy qonunchilikka kiritish hisoblanadi;
- 3) “moslashuvchanlik” konsepsiyasining maqsadi milliy manfaatlarni himoya qilish;
- 4) bu esa “moslashuvchanlik” konsepsiyasining TRIPS bitimi qoidalari va tamoyillariga mos kelishi kerakligini ko‘rsatadi.

K.Geydjerning fikriga qo‘shilgan holda dissertatsiya muallifi Bern konvensiyasining 10-moddasi 2-qismiga ko‘ra ittifoq mamlakatlari qonunchiligiga va ushbu mamlakatlar o‘rtasida tuzilgan yoki tuzilajak maxsus bitimlarga binoan adabiy yoki badiiy asarlardan nashrlarda illustratsiya sifatida, radio va televizion eshittirishlarda va o‘quv xarakteridagi ovoz yoki tasvirni yozishda, qo‘yilgan maqsad oqlaydigan hajmda va bu ish vijdonan amalga oshirilishi sharti bilan, foydalanishga ruxsat berilishi mumkin, deb hamda Bern konvensiyasining 9-moddasida 2-qismida ittifoq mamlakatlari qonunchiligida bunday asarlarni muayyan maxsus vaziyatlarda takrorlashga ruxsat beriladi, qachonki bunday takrorlash asardan normal foydalanishga ziyon yetkazmasa va muallifning qonuniy manfaatlarini asossiz cheklab qo‘ymasa, deb belgilanganligi ta‘kidlaydi.

Dissertatsiya muallifi “moslashuvchanlik” konsepsiyasini tahlil qilib, mamlakatlar milliy intellektual mulk bazasini rivojlantirish uchun patentga layoqatlilik mezonlarini boshqacha belgilashi mumkinligi, shu bilan birga, TRIPS

bitimi mualliflik huquqi egasining rozilgisiz jamoat maqsadlarida patentdan notijorat maqsadlarda foydalanish ruxsat berishi, bu esa olimlarni patentlangan ixtirolar bo'yicha tadqiqotlar olib borishga va mahalliy innovatsiyalarni rivojlantirishga hissa qo'shishga undaydi, degan xulosaga keldi. Bundan tashqari, "moslashuvchanlik" konsepsiyasi a'zo davlatlarga intellektual mulk bilan himoyalangan mahsulotlarni import qilish imkonini beruvchi parallel import holatlarida intellektual mulk huquqlarini tugatish rejimini belgilashda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagigi PF-6005-son "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni bilan 2020 — 2023-yillarda bojxona ma'muriyatchiligini isloh qilish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitim (TRIPS) (Marokash, 15-aprel 1994-yil) talablariga muvofiq intellektual mulk huquqini himoya qilish tartibini qayta ko'rib chiqish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan 2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan bo'lib, mazkur Strategiyaning 3.2. bandida bojxona qonunchiligiga "ex officio" tartibini kiritish masalasini o'rganish belgilangan.

"Ex officio" tartibining huquqiy mohiyati shuni anglatadiki, TRIPS bitimi a'zolari ularda intellektual mulk huquqlari buzilganligi haqida dastlabki dalillar mavjud bo'lganda intellektual mulk huquqi egasidan huquq buzulishini to'xtatishni talab qilish to'g'risidagi ariza bor yoki yo'qligidan qat'i nazar bojxona organlaridan o'z tashabbusi bilan intellektual mulk huquqlarini himoya qilish choralari ko'rishni va tovarlarni erkin muomalaga chiqarishni to'xtatib turishi lozimligini anglatishi haqida xulosa qilish mumkin.

Tadqiqot ishida "ex officio" tartibining huquqiy xususiyatlarini va uning parallel import bilan bog'liqligini tahlil qilib, dissertant o'z dissertatsiya ishida hozirgi vaqtda "parallel import" xalqaro-huquqiy tushunchasi mavjud emasligini va bu atamaning ta'rifi faqat JST lug'atiga ko'ra chet elda qonuniy ravishda ishlab chiqarilgan mahsulotni intellektual mulk egasining (masalan, tovar belgisi yoki patent egasi) ruxsatisiz olib kirilishidir. Ya'ni parallel import — bu eksport qiluvchi davlat mualliflik huquqi egasining ruxsatisiz import qiluvchi davlat hududiga tovar olib kirish.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot asosida muallif O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga bojxona organlariga kontrafakt tovarlarni mustaqil ravishda aniqlash va olib qo'yish, distribyutorning tovarlarni olib kirish huquqini tekshirish bo'yicha "ex officio" tartibida vakolatlar berish bo'yicha o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklifini berdi.

Dissertant I.Manta va X.A.Borland kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan intellektual mulk sohasidagi xalqaro

shartnomalarning mazmunini o'rganib chiqib, ushbu xalqaro shartnomalarda intellektual mulk obyektlariga mutlaq huquqlarni buzishning jinoyat-huquqiy jihati mavjud emas degan xulosa qildi.

Tadqiqotchi O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalarning mazmunini o'rganib chiqib, ushbu xalqaro shartnomalarda intellektual mulk obyektlariga mutlaq huquqlarni buzishning jinoyat-huquqiy jihati mavjud emas, degan xulosaga keldi.

Shu bilan birga, TRIPS Bitimning "Jinoyat protseduralari" nomi ostidagi beshinchi bo'limi milliy qonunchilik doirasida intellektual mulkka bo'lgan mutlaq huquqlarni jinoiy qonun bilan himoya qilishni ta'minlashning minimal standartlarini nazarda tutadi. Shu o'rinda ta'kidlash koizki, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning ichki mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, shuningdek, jinoiy jazo choralarini qo'llash majburiyatlarini belgilash TRIPS shartnomasida nazarda tutilgan barcha intellektual mulk huquqlariga emas, balki tovar belgilari va mualliflik huquqiga nisbatan qo'llaniladi.

Dissertatsiya muallifi intellektual mulk obyektlariga mualliflik huquqi egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish hamda O'zbekiston Respublikasida kontrafakt mahsulotlar aylanishining oldini olish, halol raqobatni rag'batlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik hamda mualliflik huquqini o'zlashtirib olish uchun jinoiy javobgarlikni; ixtiroga, foydali modelga, sanoat namunasiga, seleksiya yutug'iga, integral mikrosxemalar topologiyasiga bo'lgan huquqlarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni; Tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan noqonuniy foydalanishni uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi alohida moddalarni kiritishni taklif qiladi.

Ushbu alohida moddalarning kiritilishi intellektual mulk egalari huquqlarini himoya qiladi hamda O'zbekiston Respublikasida kontrafakt mahsulotlar aylanishining oldini olishga, halol raqobatni yo'lga qo'yishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida, tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy ishlanmalar, shuningdek, xalqaro tan olingan xorijiy brendlarni respublikaga jalb etish va tadbirkorlik subyektlariga milliy brendlarni xorijda targ'ib qilishga xizmat qiladi.

## **XULOSA**

"Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiyasi" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqoti natijasi bo'yicha quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarga kelindi:

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar:**

1. Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalari xalqaro ommaviy huquqning asosiy tamoyillariga asoslanganligi sababli ushbu normalar "qattiq", "yumshoq" va ijtimoiy normalar sifatida tasniflanadi.

Xalqaro shartnomalarning qiyosiy huquqiy tahliliga ko'ra, shuningdek, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish rejimiga asoslanib, intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalari intellektual mulkni huquqiy himoya qilish uchun shartlarni qat'iy belgilaydigan moddiy-huquq normalar, ruxsat beruvchi moddiy-huquq normalarga va taqiqlovchi moddiy-huquq normalarga bo'linadi.

2. Intellektual mulkni himoya qilish sohasida xalqaro huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo'yicha tadqiqotlar sohasida yuridik fanda mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan intellektual mulkni himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish tendensiyalari o'rganildi. Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish mexanizmining o'ziga xos xususiyati davlatlar faoliyatini xalqaro miqyosda nazorat qilish uchun yagona markazlashtirilgan apparatning mavjud emasligidir.

3. Xalqaro shartnomalar va intellektual mulk to'g'risidagi namunaviy qonun hujjatlarining o'zaro munosabati masalalaridan kelib chiqib, namunaviy qonun hujjatlari qat'iy belgilangan huquqiy funksiyaga ega emasligi hamda namunaviy qonunchilik hujjatlari o'z huquqiy xususiyatlari va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos kelmasligi tufayli mazkur normalar intellektual mulk sohasida milliy huquq normalarini shakllantirish uchun huquqiy standart rolini bajarishga qodir emasligi tog'risida xulosa qilindi.

4. Mualliflik huquqi egasining roziligisiz patentdan notijorat, maqsadlarda foydalanishga ruxsat beruvchi TRIPS bitimida qayd etilgan "moslashuvchanlik" konsepsiyasini amalga oshirish bilan bog'liq nazariy masalalar ko'rib chiqilgan bo'lib, "moslashuvchanlik" konsepsiyasi TRIPS bitimi bo'yicha majburiyatlarni milliy manfaatlarni ta'minlash uchun TRIPS bitimining qoidalari va tamoyillarini buzmasdan, milliy qonunchilikka tadbiq etish mumkin bo'lgan turli xil variantlar mavjudligini anglatadi. Shunga ko'ra, patentlarga nisbatan "moslashuvchanlik" konsepsiyasini joriy qilish rivojlanayotgan mamlakatlarni sog'liqni saqlash, ta'lim, energetika va boshqalar kabi sohalarida ushbu konsepsiyasidan foydalanish imkoniyatini beradi.

5. Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarining mohiyatini o'rganish asosida muallif quyidagi ta'rifni beradi: "**Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalari** — bu intellektual mulk obyektlarini yaratish, foydalanish, himoya qilishni global miqyosda tartibga soluvchi xalqaro universal shartnomalarda va davlatlar o'rtasidagi kelishuvlardagi normalardir".

6. Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilishning huquqiy tabiatini o'rganib, quyidagi ta'rif berildi: "**Intellektual mulk sohasidagi xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish** — bu xalqaro huquq normalarini milliy huquq tizimiga (qonunlar va qoidalarga) kiritish orqali xalqaro ommaviy huquq normalarida mavjud bo'lgan xalqaro majburiyatlarni intellektual mulk sohasidagi davlatning ichki ijtimoiy munosabatlarga tadbiq etishdir".

